



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 270-274 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI



**Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna**  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTT,  
i.f.f.d., dotsent  
[muhayyo.ravshanova@mail.ru](mailto:muhayyo.ravshanova@mail.ru)  
[orcid.org/0009-0002-2385-5485](https://orcid.org/0009-0002-2385-5485)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada muallif tomonidan elektron tijoratning iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rnini va uning asosiy tarkibiy jihatlari tahlil qilingan bo'lib, elektron tijorat biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion yechimlardan foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi ta'kidlangan. Shuningdek, internet texnologiyalari, elektron to'lov tizimlari, marketing strategiyalari, logistika xizmatlari va qonunchilik tizimi kabi omillarning elektron tijoratga ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqolada elektron tijoratning zamonaviy iqtisodiyotdagi roli va kelajakdagi istiqbollari ham tahlil etilgan.

**Tayanch so'zlar:** elektron tijorat, model, onlayn platformalari, innovatsion iqtisodiyot, natijaviy va ta'sir etuvchi omil, internet, onlayn savdo, elektron to'lov tizimlari, logistika xizmatlari, marketing strategiyalari

**Аннотация.** В данной статье автором проанализирована роль электронной коммерции в развитии экономики и ее основные составляющие. Отмечено, что электронная коммерция способствует повышению экономической эффективности за счет автоматизации бизнес-процессов, внедрения цифровых технологий и использования инновационных решений. Также рассмотрено влияние таких факторов, как интернет-технологии, системы электронных платежей, маркетинговые стратегии, логистические услуги и законодательная система на электронную коммерцию. В статье также анализируется роль электронной коммерции в современной экономике и ее перспективы на будущее.

**Ключевые слова:** Электронная коммерция, модель, онлайн-платформы, инновационная экономика, результативный и влияющий фактор, интернет, онлайн-торговля, системы электронных платежей, логистические услуги, маркетинговые стратегии

**Annotation.** In this article, the author analyzes the role of e-commerce in economic development and its key components. It is emphasized that e-commerce contributes to increasing economic efficiency through the automation of business processes, the implementation of digital technologies, and the use of innovative solutions. Additionally, the impact of factors such as internet technologies, electronic payment systems, marketing strategies, logistics services, and the legal framework on e-commerce is examined. The

article also explores the role of e-commerce in the modern economy and its future prospects.

**Keywords:** E-commerce, model, online platforms, innovative economy, effective and influencing factor, internet, online trade, electronic payment systems, logistics services, marketing strategies.

### **Kirish.**

Bugungi kunda elektron tijoratning rivojlanishi barcha uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Aynan uning davlat siyosati darajasiga olib chiqqani va unga oid qabul qilinayotgan qonun hujjatlari ham uning naqadar dolzarb ekanligini belgilab bermoqda. Sababi elektron tijoratni rivojlantirish uchun olib borilayaotgan sa'y harakatlarning ildiziga davlatning qullab quvvatlashi asos bo'lmoqda. Kundan kunga rivojlanib borayotgan raqamlilashtirish iqtisodiyot tarmog'ini ham tezkor rivojlanmoqda.

Mamlakatimizda bu soha bo'yicha olib borilayotgan ishlar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishda, shu jumladan, elektron tijoratni rivojlantirishda muayyan natijalarga erishish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, elektron tijoratning ochiq raqamli ekotizimini shakllantirish, mulkchilik, idoraviy va tarmoqqa mansubligi hamda hududiy joylashuvidan qat'iy nazar barcha elektron platformalar bilan ta'minlash, mijozlar bazasidan teng foydalanish va raqamli ekotizim foydalanuvchilariga xizmatlar ko'rsatishni tezlashtirish orqali elektron platformalar va ularning xizmatlarini ilgari surish borasida tegishli normalarning joriy etilmaganligi elektron tijoratni rivojlantirish borasida dolzarb muammo bo'lib qolmoqda [1]

Elektron tijorat ma'murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risida qarorda "Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Elektron kooperatsiya portali markazi **Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi qoshidagi Raqamli transformatsiya markazi**" (keyingi o'rinlarda – Markaz) etib qayta tashkil etilishi qayd etilgan [2].

### **Adabiyotlar sharhi.**

Internet tarmog'ining rivojlanishi natijasida ko'plab sohalar rivojlandi. Shu jumladan elektron tijorat ham tezlikda ommalashmoqda. Efraim Turban va Jon Outland "Elektron tijorat – bu internet va boshqa axborot texnologiyalaridan foydalangan holda mahsulot va xizmatlarni sotish, sotib olish, almashish va tarqatish jarayonidir" [3] deya ta'rif bergan. Uning asosiy elementlari sifatida mahsulot va xizmatlar savdosi, raqamlashtirilgan to'lov tizimi, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn market, internet orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish, sun'iy intellekt va big data asosida personalizatsiyani kiritish mumkinligini e'tirof etgan. Biznes jarayonlarini avtomatlashtirishni nafaqat tadbirkorlarga balki iste'molchilar uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Sababi raqamlilashtirishda asosiy maqsad iste'molchilar bozorida o'z mahsulot va xizmatlarini barchaga birdek taqdim etishdir.

Kenneth C. Laudon va Carol Guercio Traver "E-Commerce 2023[4]: Business, Technology, Society" nomli kitobida elektron tijoratni turli nuqtai nazarlar asosida tahlil qiladi. Hususan texnologik nuqtai nazar tahlilda eng asosiy o'rindan joy olishini bunda

internet va mobil ilovalarning o'rnini va ahamiyati haqida fikr mulohazalar mavjud. Unga ko'ra M-commerce orqali harid qilish va mobil ilovalar yordamida biznesni rivojlantirish va kengaytirish imkonini berishi hususida mualliflarning fikr mulohazalari mavjud. Shuningdek "Elektron tijoratning texnologik asoslari, jumladan internet, mobil ilovalar va to'lov tizimlari, kompaniyalar va mijozlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni qulaylashtiradi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt va big data, tijorat jarayonlarini yanada samarali va xavfsiz qilishga yordam beradi" [4] ekanligi texnologik jihatini umumiy tarzda yoritadi.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar elektron tijoratni nazariy jihatdan o'rgangan bo'lsa, bir qancha tadbirkorlar va amaliy tadqiqotchilari uni amaliyotda qo'llay bilishdi. Jumladan Jeff Bezos onlayn savdoning turli jihatlarini o'rgangan va u Amazonni dunyodagi eng yirik elektron tijorat kompaniyasiga aylantirdi. Jack Ma B2B, B2C va C2C modellari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan va Alibabaning Xitoy elektron tijorat bozorini rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan. Bugungi kunda dunyoning eng mashhur shaxslaridan biri bo'lgan Elon Mask onlayn to'lov tizimlari va xavfsizlik bo'yicha tadqiqot olib borgan va elektron tijoratda moliyaviy texnologiyalarning rolini o'rgangan. Mazkur amaliy tadqiqotchi va tadbirkorlarning raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratni rivojlanishida olib borgan ilmiy va amaliy ishlari beqiyosdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolani yozishda statistik, matematik, guruhlash, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, tizimli yondoshuv va mantiqiy izchillik usullari qo'llanildi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Elektron tijorat iqtisodiyotning rivojlanishning asosiy bug'ini bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini jadal sur'atlar bilan rivojlanishida va ushbu jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion yechimlarni qo'llash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirmoqda. Biznesni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish va ushbu jarayonda innovatsion yechimlardan foydalanish, bugungi kunda har bir tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun muhim vazifalardan biridir. Elektron tijoratning xizmat ko'rsatish sohasiga ham ildam qadamlar bilan kirib keldi. Masofadan turgan holda taksi xizmatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish, onlayn platformalar orqali buyurtma berish, raqamli tibbiyot xizmatlari yani ushbu jarayonda shifoxonalar va ulardagi navbatlar, ish vaqtlari hamda turli tibbiyot xizmatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish, avia va temir yo'l chiptalarini masofadan turgan holda harid qilish imkoniyati kabi misollarni ketirish mumkin. Keltirilgan misollar insonlar kundalik hayotlarida duch kelishi mumkin bo'lgan elektron tijorat shakllaridir. Elektron tijoratning asosiy sohasi bu logistik xizmatlar ko'rsatishdir. Sababi ushbu jarayonda internet tarmoqlari bilan ta'minlanganlik bilan bir qatorda logistik xizmatlar ham muhim ahamiyatga egadir.

Elektron tijoratni iqtisodiy tahlil etish va prognoz qilishda ekonometrik tahlillardan foydalanish zarurdir. Sababi elektron tijoratning asosiy savdo hajmi onlayn platformalar orqali amalga oshiriladi. Mazkur platformalarga kiruvchi hamda haridni amalga oshiruvchi kuzatuvchi yoki haridorlarning kirishlari va sotuv holatlari haqidagi ma'lumotlar asosida platformaning keyingi sotuv jarayonini prognoz qilishda ekonometrik modellardan foydalaniladi. Bunda talab va taklifni bashorat qilishda

regression modellardan foydalaniladi. **Elektron tijoratga ta'sir etuvchi asosiy omillarga internet va mobil texnologiyalar tarqalishi** – internet foydalanuvchilari soni elektron tijorat hajmiga bevosita ta'sir qiladi. Internet foydalanuvchilarning sonini ortishi elektron tijoratning ommalashuvi uchun muhim omildir. Foydalanuvchilar uchun internet tezligi va sifati juda muhimdir. Jahonda internet tarmoqlaridan foydalanuvchilar 2010-yilda 2 mlrdni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatgich 5,3 mlrdga o'zgardi. Bunda albatta jahon aholisining o'sish sur'ati ham ta'sirini ko'rsatgan. Respublikamizda esa internet foydalanuvchilar 2010-yilda 4,7 mlnni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib esa 31 mln foydalanuvchi mavjud.

Elektron tijoratga sifatida **elektron to'lov tizimlari rivojlanishi** ta'sir etuvchi omil sifatida olish mumkin. To'lov shaklining qulayligi iste'molchilarning onlayn xarid qilish ehtimolini oshiradi. Dunyo miqyosida eng katta elektron to'lov tizimlari sifatida PayPal, Alipay, WeChat Pay, Apple Pay, Google Pay kabilarni keltirish mumkin. Respublikamizda ham onlayn to'lov tizimlari Payme, Click va boshqa bir qancha ilovalar mavjud. **Global elektron to'lovlar hajmi** 2025-yilda global elektron to'lovlar hajmi 6,7 trillion dollarga yetishi kutilmoqda, bu 2020-yilga nisbatan 50% o'sishni ko'rsatadi.

Ta'sir etuvchi omillardan yana biri **marketing va reklama strategiyalaridir**. Bunda elektron tijorat kompaniyalari mijozlarni jalb qilish uchun raqamli reklama platformalaridan foydalanadi. Elektron tijorat kompaniyalari mijozlarni jalb qilish uchun raqamli reklama platformalaridan keng foydalanadilar. Bular orqali ular o'z mahsulotlarini keng auditoriyaga tanitib, potentsial mijozlarga o'zlarini tanishtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan Google qiduruv tizimida ma'lumot izlovchi shaxs ya'ni mijoz qiduruv so'rovlari asosida so'rovnomaga mos ravishda kompaniyalar o'z reklamalarini ko'rsatadilar. Bunda mijozning so'rov qidiruviga mos taqdim etiladi.

**Qonunchilik va soliq tizimidagi o'zgarishlar ham elektron tijoratning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida qatnashadi**. Huquqiy va soliq tizimi elektron tijoratga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. To'g'ri qonunchilik biznesni tartibga solib, iste'molchilarni himoya qilsa, murakkab soliq tizimi va xalqaro huquqiy talablar ba'zi bizneslar uchun to'siq bo'lishi mumkin. Shu sababli, onlayn savdo bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar huquqiy va soliq talablariga rioya qilishlari muhimdir.

Logistika xizmatlari elektron tijoratning rivojiga katta ahamiyatga ega. Elektron tijoratning rivojlanishida internet tarmoqlari qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, logistika xizmatlarining ham o'rni beqiyos. Elektron tijorat muvaffaqiyati faqat to'g'ri marketing yoki mahsulot tanlovi bilan bog'liq emas, balki **logistika va yetkazib berish tizimlari** ham muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda mahalliy va halqaro logistika xizmatlari keng rivojlanmoqda. Tez, ishonchli va samarali yetkazib berish xizmatlari mijozlarning qoniqish darajasini oshiradi, biznes raqobatbardoshligini ta'minlaydi va umumiy daromadga bevosita ta'sir qiladi.

Jahonda elektron tijorat hajmi 2022-yilda 6,0 trln dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2027-yil 8,2 trln dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Respublikamizda esa ushbu ko'rsatgich 2022-yilda 10886,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2027-yilda 1,8-2,2 mlrd dollar prognoz qilinmoqda.

**Xulosa va takliflar.**

Elektron tijorat zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini jadallashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. U xizmat ko'rsatish sohasidan tortib, logistika tizimlarigacha keng qamrovli tarmoqlarga ta'sir etmoqda. Raqamli texnologiyalar, internet foydalanuvchilari sonining ortishi, elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi hamda samarali marketing strategiyalari elektron tijoratning taraqqiyotida asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, qonunchilik va soliq tizimining moslashuvchanligi, logistika xizmatlarining sifati ham mazkur sohaning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, elektron tijoratga sarmoya kiritish va uni yanada rivojlantirish iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadi. Ta'sir etuvchi omillar asosida ekonometrik modelni yaratish, tahlil etish va prognoz qilish innovatsion iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratning zaruriyatini namoyon qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.07.2022 yildagi 392-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori Elektron tijorat ma'murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risida 17.11.2021
3. **Turban, E., Outland, J., King, D., Lee, J. K., Liang, T. P., & Turban, D. C. (2018).** *Electronic Commerce 2018: A Managerial and Social Networks Perspective*. Springer.
4. Laudon, K. C., & Traver, C. G. (2023). *E-commerce 2023: Business, technology, society*. Pearson.
5. Makhmanazarovna, R. M. (2023). The Value of Mathematical Modeling in Teaching Econometrics to Students of Higher Educational Institutions. *Eurasian Research Bulletin*, 19, 176-178.
6. Makhmanazarovna, R. M. (2021). The importance of a synergy approach to teaching an econometrics in the direction of the economy. In international conference on multidisciplinary research and innovative technologies (Vol. 2, pp. 5-7).
7. Равшанова Мухайё Максманазаровна. (2023). Эконометрические модели, суть их использования и необходимость эконометрического анализа. *Intent research scientific journal*, 2 (6), 5–9. Получено с <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/116>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

